Oligofreniyaning nomoyon bo‘lish darajali .

Norqobilova Sumbula
Termiz davlat pedagogika instituti
Logopediya ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada oligofreniya yani aqli zaiflik haqida ma’lumot. Uning darajalari va kelib chiqish sabablari haqida bundan tashqari hozirgi davrdagi aqli zaiflik miqdoriy ko‘rsatgichlari hamda M.S. Pevznerning oligofreniyaning darajalari to‘g‘risidagi nazariyalar bayoni berilgan .

Kalit so‘zlar: Oligofreniya, aqli zaiflik, diliblik , inbetsillik, idiotizm, endogen , egzigen, meningoensefalit, meningit, bosh miya jarohatlari, neyrodinamika.

Annotation: This article contains information about oligophrenia i.e. mental retardation. In addition to these quantitative indicators of mental retardation in the present period about its degrees and causes of origin, as well as M.S. Pevzner's theory of the levels of oligophrenia is presented.

Keywords: Oligophrenia, mental retardation, dementia, incompetence, idiocy, endogenous, exogenous, meningoencephalitis, meningitis, head injuries, neurodynamics

Oligofreniya (yunoncha oligos — oz, kam; phren — aql) — markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan, aqliy rivojlanishning tug‘ma yoki erta orttirilgan (3 yoshgacha) shakli. Bu holatda intellektning umumiy rivojlanishi to‘xtab qoladi yoki sustlashadi. Hozirgi kunda aqli zaiflik muammolar juda ortgan bu muammolar bilan maxsus sohalar masalan olegofrenpsixologiya kabi sohalar shug‘ullanmoqda .

XX asrning 90-yillaridan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruhga bo'ladilar: yengil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Chet el psixologlari bola intellektual koeffitsientini aniqlashga asoslanadilar. Ma’lumotlarga ko'ra, yengil aqli zaiflikda 70 ga teng, o'rtachada 70 dan 50 gacha diapazonda, chuqurda 25 dan 0 gacha.
Aqli zaif bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda, endogen (ichki) va ekzogen (tashqi m uhit) omillarini ajratish mumkin. Aniqlanishicha, aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular tug'ma aqli zaiflar soniga kiradi. Biroq buzilishlarning yuzaga kelishida onaning yuqum li kasalliklari (masalan: qizilcha, homilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilarni haddan ziyod iste’mol qilish, onaning endokrin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim rol o'ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida, tug'ruq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari ma’lum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta rol o'ynaydi.So'nggi yillarda bolalar rivojlanishining murakkab nuqsonlari muammosi keskinlashmoqda. V III turdagi maxsus maktab o'quvchilari tarkibi og'irlashmoqda. Kar va zaif eshituvchi bolalar orasida aqli zaiflikning tarqalishi taxm inan 10%, ko'r va qisman ko'ruvchilar o'rtasida 20% ni tashkil etadi.

Aqli zaiflikning 3ta ko‘rinishi bor bular diliblik ya’ni yengil, inbetsillik ya’ni o‘rta darajadagi aqli zaiflik , 3- eng og‘ir daraja ya’ni idiotizm.

Debillik (Yengil daraja): Aqliy zaiflikning eng yengil formasi. Bunday bolalar maxsus maktablarda o‘qish, yozish va hisoblashni o‘rganishlari, oddiy kasb-hunarlarni egallashlari mumkin.

Imbetsillik (O‘rta daraja): Nutqi va tushunchalari cheklangan. Ular o‘z-o‘ziga xizmat qilishni o‘rganishi mumkin, lekin doimiy nazorat va yordamga muhtoj bo‘lishadi.

Idiotizm (Og‘ir daraja): Eng og‘ir shakli bo‘lib, nutq deyarli bo‘lmaydi. Atrofdagilarni tanishmaydi, faqat instinktlar asosida harakat qilishadi va doimiy parvarish talab etiladi.

Bundan tashqari M .S.Pevzner taklif etgan tasnifga ko‘ra u oligofreniyaning 5ta asosiy turini ajratadi. Bu tasnif oligofren bolalar xulqi va psixik faoliyatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunish imkonini beradi va korreksion-tarbiyaviy ishlar yo'llarini izlashni yengillashtiradi.

M .S.Pevzner oligofreniyaning 5 ta asosiy turini ajratadi:

1. Oligofreniyaning murakkab bo'lmagan turi.

2. Neyrodinamikasi buzilgan oligofrenlar.

3. M a’lum analizatorlari buzilgan oligofrenlar.

4. Shaxsi qo'pol buzilgan olifgorenlar.

5. Telbanamo xulqli oligofrenlar.

1. Oligofreniyaning murakkab bo'lmagan turi nerv jarayonlarining vazminligi bilan tavsiflanadi. Bu shaklda hissiy irodaviy sfera nisbatan saqlangan. Bilim faoliyatidagi buzilishlar ayrim analizatorning qo'pol buzilishi bilan kechmaydi. Bola berilgan topshiriq unga oson bo'lsagina maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. Odatdagi vaziyatda uning xulqi dekvat, u mo‘min, atrofdagilarga xayrixoh .

Ko'pincha ota-onalar uning harakat, nutq, xotira, fikrlash jihatidan ortda qolishini sezmaydilar va uni normal deb biladilar. Bunday bolalar odatda

umum ta’lim maktablariga tayyorlanmagan bo'ladilar. Ular muntazam yaxshi o‘zlashtira olmaydigan o'quvchi bo'lib qoladilar. Bunday bolani V III turdagi maxsus maktabga yoki maxsus sinfga o'tkazish o'zining o'qishga layoqatsizligini susaytirmaslik imkoniyatini beradi.

2. Qo'zg'alish va tormozlanish, hissiy irodaviy sohaning beqarorligi boladagi og'ishlar uning xulqi va faoliyati o'zgarishida aniq namoyon bo'ladi. Qo'zg'aluvchi oligofrenlar ko'pincha notinch, ta’sirchan, to'xtovsiz, harakatlari behalovat, haddan tashqari chalg'iydi, quloqsiz, urushqoq. Ular kattalarning ogohlantirishiga befarq qaraydi. Sinflarda qo'zg'aluvchan bolalar notekis,shoshib ishlaydilar. Ko'rinib turgan mamnuniyat bilan ustaxonaga boradilar, lekin o'ylamay palapartish ishlaydilar. Ularda tez-tez intizom buzilishlari bo'lib, ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi. Bu o'quvchilarga tinch sharoit va faoliyat turlarining o'zgarib turishi kerak. Ularning individual xususiyatlari hisobga olingan ta’lim va tarbiya jarayonida qo'zg'aluvchan oligofrenlar og'ir-vazmin va mehnatga layoqatli bo'lib qoladilar. Ular ijtimoiy moslashadilar, lekin jam oa a’zolari bilan ahamiyatsiz sabablarga ko'ra janjallashadilar, intizomsizlik ko'rsatishlari mumkin.

Tormozlangan oligofrenlar bo'shliq, immillaganlik, inertligi bilan ajralib turadilar, bu ularning motorikasi, xulqi, past mehnat layoqatida ko'rinadi. Ular sekin harakat qiladilar. Ularga o'z faoliyatini tashkil qilish uchun ko'p vaqt kerak. Ular sinfdagilar ortidan ulgurmaydilar. U larni shoshirish befoyda, negaki ularning o'z harakat templari bor. Bu toifaga kiruvchi o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlar asosan yuqorida qayd etilgan nuqsonlarni korreksiyalashga yo'naltiriladi.

3. Analizator funksiyasi buzilgan yoki maxsus nutq buzilishi oligofrenlarda po'stloqning tarqoq shikastlanishi yanada chuqur lokal shikastlanishlar bilan birlashib ketadi. Bunday bolalar aqli zaiflik asosiy nuqsonidan tashqari eshitish, ko'rish, nutq, tayanch-harakat apparati nuqsonlariga ega. Ular odatda eshitish, ko'rishi zaif bolalar,bolalar serebral falajlgi bo‘lgan bolalar va nutqi buzilgan bolalar

msktablarining maxsus tashkil qilingan sinflarida o'qiydilar. Ularning hayotiy istiqbollari chegaralangan, negaki 2 yoki 3 xil nuqsonning borligi ularni oldinga siljish va ijtimoiy-mehnat adaptatsiyasini qiyinlashtiradi.

4. Bosh miya po'stlog'ining peshana bo'limlari yetishmasligi oligofreniyada bolalar bilish faoliyati buzilishlari, shaxsning qo'pol buzilishlari motorikaning keskin buzilishlari bilan kechadi. Bu bolalar bo'sh, g'ayratsiz, yordamga muhtoj. Ularning nutqi m a'nosiz, taqlidiy xarakterda. Bolalar faoliyat va faollikka yo'naltirilgan psixik zo'riqishga qodir emas. Ular vaziyatni yaxshi tushunmaydilar. Bu o'quvchilar mehnatni sevmaydilar, oddiy maishiy burchlarini bajarishdan qochadilar. Ularning rivojlanishi sekin amalga oshadi. Lekin ular maktab ta 'limining oddiy turlarini bajarishga o‘rgatib boriladi.

5. Telbanamo xulqli oligofreniyada bolada hissiy-irodaviy doira keskin buziladi, shaxsga tegishli komponentlarning o'ziga xos rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi. Tez-tez bo'lib turadigan bosh og'rig'i, nevroz xarakterdagi buzilishlar aqliy faoliyat jarayonlariga o'zining salbiy ta 'sirini o'tkazadi. Bu toifadagi anatik-dinamik buzilishlari bo'lgan oligofrenlarni ham kiritish mum kin. . Bunday nuqsonlar asosan meningoensefalit, meningit, bosh miyasi jarohat olgan oligofrenlarga xosdir.

XULOSA Oligofreniya aqli zaif shaxslarning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga va ularni jamiyatda foydali shaxs bo‘lib xizmat qilishida yordam beradi . Nuqsonning turini to‘g‘ri aniqlash — samarali ta'lim va tarbiyaning garovidir.Bundan tashqari olegofren bolalar sonini kamaytirish va reabilitatsiya qilishda ham ulkan ishlar olib borilmoqda bundan maqsad bolalarni ijtimoiylashtirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topa bilishlari .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Davletshin D., Mamedov K. Ibn Sinoning psixologik qarashlari. llmiy-ommabop to‘plam. — T., 2002.
2. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya.—Toshkent,2002.

3.. Дети с особенностями развития в России: Итоги и перспективи / Под.ред А.М. Щербаковой. — М., 1998.
4. Детская практическая психология. (Под ред. Т.Д. Марсиновской) — М., 2000.

5. Элконин Д.Б. Психология развития: Учеб. пособие для студентов высших и средних специальных учебных заведений. —М., Академия. 2001.

6. Эмоционально-волевие процессы и познавательная деятельность умственно отсталых детей. Сб.науч.тр. — М., 1993.

7. G ‘oziyev E. va boshqalar. Psixologiya muammolari. — T., 1999.